

MUMTOZ ASARLARNI O‘QITISHNING INTERFAOL USULI.

(Saddi Iskandariy dostoni misolida)

Safargul Mengziyayeva

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada mumtoz asarlarni o‘qitishning interfaol usullari haqida to‘xtalib o‘tilgan. Jumladan refleksiya, tushunchalar tahlili va boshqalar. Keyingi paytlarda ilg‘or tajribali o‘qituvchilar tamonidan darsning seminar - dars, bahs - dars, suhbat - dars, sinov - dars, konferensiya - dars, sayohat-dars kabi turlari o‘tkazilmoqda. Bunday dars turlari o‘quvchining dars paytidagi loqaydligiga barham berib, unda faollikni uyg‘otadi, bolani o‘ylashga, muhokamali fikr yuritishga, so‘zlashga va izlanishga hamda mehnat qilishga o‘rgatadi.

Аннотация

В данной статье основное внимание уделяется интерактивным методам обучения классическим произведениям, включающим рефлексия, анализ понятий и др. В последние годы опытные преподаватели проводят занятия, такие как класс-семинар, класс-дискуссия, класс-разговор, класс-тест, класс-конференция, класс-путешествие. Такие виды занятий устраняют равнодушие учащегося во время урока, пробуждают его активность, учат ребенка думать, рассуждать, говорить, искать, работать.

Annotation

This article focuses on interactive methods of teaching classical works, including reflection, analysis of concepts, etc. In recent years, experienced teachers have been conducting classes such as seminar-class, discussion-class, conversation-class, test-class, conference-class, travel-class. Such types of lessons eliminate the student's indifference during the lesson, awaken his activity, teach the child to think, discuss, speak, search, and work.

Kalit so‘zlar: Interfaol usul, noan‘anaviy dars, refleksiya, tushunchalar tahlili, sinkveyn, mustaqil fikrlash, bahs yuritish.



Ключевые слова: Интерактивный метод, нетрадиционный урок, рефлексия, анализ понятий, синхронизация, самостоятельное мышление, дебаты.

Keywords: Interactive method, non-traditional lesson, reflection, analysis of concepts, synchronization, independent thinking, debate.

Asosiy qism

Umumta'lim maktablarida o'qitiladigan fanlar orasida adabiyot predmeti o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirishda yetakchi mavqeda turadi. Chunki adabiyot inson ma'naviy qiyofasini tashkil etadigan ruhiy holat, tushuncha, tasavvur, kayfiyat, orzu-umid, mayl va qiziqishlarni yuzaga keltirishning beqiyos imkoniyatlariga egadir. U o'quvchilar ma'naviy dunyosini qaror toptirishning chegarasiz maydonidir. Bunga erishish uchun adabiyot o'qitish jarayonida o'rganiladigan badiiy asarning janri, tabiati, badiiy xususiyatlariga mos metod va usullar tanlanishi kerak bo'ladi. Bugungi shiddat bilan jadallashib borayotgan taraqqiyot davrida dunyo har daqiqada o'zgarimoqda, avlodlar o'zgarimoqda va o'sib kelayotgan avlodning fikrlashi, dunyoqarashi turlicha va bu jarayon bugungi ta'lim tizimida o'qituvchining tinimsiz izlanishga, yangidan yangi g'oyalarni qo'llashga, ta'limda innovatsion texnologiyalardan, AKTdan foydalanish zaruratini tobora orttirmoqda. Ma'lumki, «Adabiyot» darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'alariga iftixor hissini kamol toptirishda «Adabiyot» darslarining o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, biz ham o'z darslarimizni tashkil etishda aynan shu maqsadlarni ko'zlagan holda ish olib boramiz. Keyingi paytlarda ilg'or tajribali o'qituvchilar tamonidan darsning seminar - dars, bahs - dars, suhbat - dars, sinov - dars, konferensiya - dars, sayohat-dars kabi turlari o'tkazilmoqda. Bunday dars turlari o'quvchining dars paytidagi loqaydligiga barham berib, unda faollikni uyg'otadi, bolani o'ylashga, muhokamali fikr yuritishga, so'zlashga va izlanishga hamda mehnat qilishga o'rgatadi. Buning uchun hamma vaqt o'qituvchi, o'z o'quvchilariga nisbatan ko'proq shug'ullanib, bilim va mahoratini tinmay oshirib borishi zarur. Shundagina u o'z nomiga munosib faoliyat kishisi bo'ladi. Mehnatning samarasi sifatida har bir



darsi mazmunli, maroqli orginalligi bilan farqli ekanligini, uning mashg'ulotlariga o'quvchilar tabora qiziqib borayotganliklarini, shogirdlarining dars jarayonida o'quv materiallarini, o'zaro ishtiyoq bilan o'rganishga kirishib faollik va uyushqoqlik ko'rsatayotganliklarini qalbdan his etadi. Bunday natijaga, shubhasiz dars jarayonida oqitish usullaridan har tomonlama foydalanish orqali erishish mumkin Ta'lim har doim yangilanishga mushtoqdir. Shuning uchun, iloji boricha, ta'limning yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o'quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o'tilganda o'zini oqlaydi. Me'yoridan oshmasligi, o'quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog'lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e'tibor berishimiz lozim. Har bir o'tilayotgan darsga o'quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun qadrlidir. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Shu o'rinda interfaol usul haqida atroflich to'xtalib o'tsak, Interfaol usul nafaqat talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shaklidir balki boshqa o'quvchilar bilan ham, o'quv jarayonida o'quvchilar faolligining ustunligi, suhbatda ishtirok etishi, kimdir bilan muloqot qilishini taminlaydi. O'qituvchi faqat o'quvchilarning faolligini dars maqsadiga erishishga yo'naltiradi. Interfaol darslarning asosiy tarkibiy qismlari o'quvchilar tomonidan bajariladigan interfaol mashqlar va topshiriqlardir.

Zamonaviy pedagogika interfaol yondashuvlar mashq va topshiriqlarga boy bo'lib, ular orasida quyidagilar ajralib turadi:

- ijodiy topshiriqlar
- kichik guruhlarda ishlash;
- o'quv o'yinlari (rolli o'yinlar, simulyatsiyalar, biznes o'yinlari, o'quv o'yinlari),
- sinfdan tashqari tadbirlar (radio, filmlar, ko'rgazmalar, spektakllar);
- isinish mashqlari
- interaktiv ma'ruza, "talaba o'qituvchi sifatida", "hamma hammaga o'rgatadi", Sokratik dialog,



- murakkab masalalarni muhokama qilish ("Bir pozitsiyani egallang", "Bir - ikki - barchasi birgalikda", "Televizion tok-shou, simpozium, munozaralar ko'rinishidagi muhokama),

- muammoni hal qilish ("Aqliy hujum", "Qaror daraxti", "Vaziyatlarni tahlil qilish" va boshqalar).

Har qanday interfaol usulning asosi ijodiy vazifadir. Ijodiy vazifalar talabalardan nafaqat ma'lumotni qayta ishlab chiqarishni, balki ijodkorlikni talab qiladigan vazifalar sifatida tushuniladi, chunki vazifalar noaniqlik elementini o'z ichiga oladi va hal qilishda bir nechta yondashuvlarga ega. Javobning noaniqligi va o'zingizning shaxsiy tajribangiz va hamkasbingiz tajribasiga asoslanib, o'zingizning "to'g'ri" yechimingizni topish qobiliyati sizga hamkorlik uchun asos yaratish, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, shu jumladan o'qituvchilar bilan muloqot qilish imkonini beradi. Buning uchun shunday vazifani topish kerak

- a) aniq javob yoki yechimga ega emas;
- b) talabalar uchun amaliy va foydali;
- v) o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi.
- d) imkon qadar o'rganish maqsadlariga xizmat qiladi.

Berilayotgan ijodiy vazifa asosan shularni qamrab olishi kerak.

Yana darslarni qiziqarli va tushunarli bo'lishi uchun "Sinkveyn", "Assesment", "Tushunchalar tahlili" kabi metodlardan ham, yana "Matn tahlili" metodlarini ham ko'p bora qo'llash kerak, chunki bir xil metodlarni qo'llash ham bolalarni zeriktirib qo'yishi mumkin shuning uchun ularni tez-tez almashtirish darsni samarali chiqishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa umumtalim maktablarida mumtoz asarlarni o'qitishda yuqorida keltirilgan metodlardan foydalanib darslar tashkil qilinsa o'quvchilarning mumtoz asarlarni tushunishi osonroq bo'lardi. Ushbu metodlarni Alisher Navoiy asarlari jumladan Saddi Iskandariy dostoni misolida ko'rib o'tamiz. "Refleksiya" (o'z tuyg'u va xatti-harakatlarini baholash ma'nosini bildiradi) usulini qo'llaganda o'qituvchi o'quvchilar oldiga o'z fikrini mantiqan jamlab, bitta jumla bilan ifodalash talabini qo'yishi lozim, aks holda, o'quvchilar uzundan-uzoq gapirib, o'qish jarayonini "refleksiya" emas, balki suhbat-munozaraga aylantirib yuborishi mumkin.

"Refleksiya" uchun ikki holat xosdir: a) butun asar haqidagi fikrni bitta jumlagi jamlab ifodalay olish; masalan, "Saddi Iskandariy" dostonini tahlil qilishni o'rgandim" yoki "Dostondagi eng muhim ijtimoiy-siyosiy masalalarni bilib oldim",



yoxud “Iskandar obrazining ijobiy sifatlarini aniqlab oldim”; b) vaqt tig’izligi uchun zanjirsimon tarzda navbati bilan hammaga so’z berilganda, har bir o’quvchidan fikrini 33 soniyada aytib olish talab etiladi. O’quvchilar zanjirsimon tarzda o’z fikrini ayta boshlaganda uchinchi o’quvchidan keyingilarning fikrlari yangilik bo’lmay, oldingilarni takrorlab qolishi mumkin. O’qituvchi fikrlarning qaytarilishiga yo’l qo’ymasligi kerak. Demak, har bir o’quvchi tezlik bilan oldin tayyorlagan javobni o’zgartirishi, buning uchun boshqa o’quvchilarning javoblarini eshitib tushuna bilishi lozim bo’ladi.

1.2.1 – jadval

“Refleksiya” metodi xususiyatlari

Afzalliklari	Kamchiliklari
<ul style="list-style-type: none"> -o’quvchilar fikrlarini jamlashga o’rganadi; - jumla tuzishda uyushiq bo’lakli gaplardan foydalanish ko’nikmasi rivojlanadi; - gap tuzishga ijodiy yondashadi; - o’quvchilar topqirlikka va qisqa vaqt ichida fikrini mantiqli tarzda tez o’zgartira olishga o’rganadilar; - birovlarini tinglash va mustaqil fikrlashga o’rganadilar; - o’quvchilarning og’zaki va yozma nutqi rivojlanadi. 	<ul style="list-style-type: none"> - tez va to’g’ri gap tuza olmaydigan o’quvchilar xato qilib qo’yishdan qo’rqib, o’zlarini darsda noqulay sezadilar; - o’tgan dars yoki so’ralayotgan asar haqida ularda tasavvur bo’lmasligi mumkin; - o’quvchi aytmoqchi bo’lgan fikrini boshqa o’quvchi aytib qo’yganidan sarosimaga tushib qolishi mumkin; - aksariyat o’quvchilar butun bir asar, kun yoki dars haqidagi fikrini bitta jumlagi jamlay olmaydilar.

“Saddi Iskandariy” dostoniga bag’ishlangan ikkinchi darsni yana boshqacha tashkil qilish mumkin. Masalan, flipchart qog’ozi tarqatiladi. Qog’ozda guruhlar ishlagan mavzu yozilgan bo’ladi, ya’ni 5ta guruhga 5ta flipchart qog’ozi beriladi, unda 5ta mavzu yozilgan bo’ladi. Guruhlarga qismlarga ajratilgan flipchart qog’ozi tarqatiladi.

Birinchi qatorni 1-kichik guruh to’ldiradi. Ikkinchi qatorni 2-guruh, uchinchi qatorni 3-guruh, to’rtinchi qatorni 4-guruh, beshinchi qatorni 5-guruh to’ldiradi. Ish karusel (charxpalak) tarzida amalga oshiriladi. Har bir guruh o’z ish qog’ozining birinchi



qatoriga o'zi o'rgangan materiallarni yozadi. Shu bois qog'ozning ilk qatoriga kattaroq joy ajratilgani ma'qul. Bu ishga ajratilgan vaqt tugagach, o'qituvchi ishni to'xtatish va o'z ish qog'ozi, mavzuni o'rganishda tayangan materiallarini keyingi guruhga berishni taklif qiladi. Bunda 1-guruhga 5-guruhning ishi, 2-guruhga 1-guruhning ishi, 3-guruhga 2-guruhning ishi, 4-guruhga 3-guruhning ishi, 5-guruhga 4-guruhning ishi mavzuga oid tarqatma materiallar bilan birga uzatiladi. Ish davom etadi, ya'ni guruh qo'liga kelgan materiallar bilan tanishadilar va qog'ozning birinchi qatorida oldingi guruh to'xtalmagan ma'lumotlar bilan ikkinchi qatorini to'ldiradilar. Vaqt tugagach, qog'oz va tarqatma materiallar keyingi guruhga uzatiladi va shu tarzda har bir guruhga 5ta ish qog'ozi keladi, ular ustida ishlanadi, to'ldirish sifatidagi fikrlar yoziladi. Yakunida har bir guruhning o'z ish qog'ozi o'ziga qaytib keladi. Ular qog'ozdagi boshqa guruhlar to'ldirgan fikrlarni o'rganadilar.

Keyingi bosqich guruh ishlari taqdimotidan iborat, tayyorlangan javob aks etgan ish qog'ozlari xattaxtaga osib qo'yiladi. Shu tariqa galereya hosil qilinadi. O'qituvchi xattaxtada osilgan qog'ozlardagi o'rganilgan va o'zgalardan tomonidan to'ldirilgan 5 yo'nalishdagi ma'lumotlar bo'yicha xulosa yasaydi. Flipchart qog'ozlari dars yakunigacha xattaxtada osig'liq turishi maqsadga muvofiqdir. Fikrlar yozilgan qog'ozlar o'quvchilar ko'z o'ngida bo'lsa, ularni tahlil qilish imkoniyati yaratilgan bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning ikkala dars bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholash uchun savol-javob o'tkazishi ham mumkin.

O'quvchilarning doston yuzasidan bilimni mustahkamlash va sinash maqsadida dostonlardan parcha yodlash hamda test savollari ustida ishlashga bir dars ajratildi. Ushbu dars o'quvchilarning ifodali o'qish va yodlash ko'nikmalarini mustahkamlashni ko'zda tutdi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, adabiyot o'qituvchisining asosiy vazifasi o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini, ularni qondirish qobiliyatini shakllantirishdan iborat mustaqil rivojlantirishdir. Adabiyot o'qituvchisi matnlar o'qilgani haqida hisobot bermasligi, balki o'qishga o'rgatishi, badiiy asarlarni milliy va umuminsoniy ma'naviy madaniyatning o'ziga xos shakllari sifatida idrok etishga o'rgatishi kerak. Bugungi kunda adabiyot o'qituvchisining asosiy vazifasi o'quvchilarga asarning estetik-badiiy mohiyatini anglashga ko'maklashish, "eng yaxshi kitobxon tayyor kitobxon" (V.Gyugo) ekanligini anglab, tafakkurli o'quvchini tarbiyalashdan iborat. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarning o'quv



faoliyatini tashkil etishda turli ish shakllaridan, turli metod va usullardan foydalanadi. Ularning barchasi badiiy matnni chuqur idrok etishga yordam berishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qayumov A. Saddi Iskandariy, -T.: G'.G'ulom nomidagi nashr., 1975.-196 b.
2. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: O'qitish muammolari va yechimlar. -T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009. - 244 b.
3. To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. -T.: "Yangi asr avlodi" 2006. -152 b.
4. Saidmurod Boyqulovich Xolbekov 2020y Adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish samarasi maqola
5. Internet malumotlari

